

**BADIIY ASAR TAHLILI DAVOMIDA O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI  
OSHIRISH BO‘YICHA TAVSIYALAR**

*Axmedova Nozilaxon Sharifjon qizi*

*Andijon shahar 1-son kasb-hunar maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada muallif tomonidan o‘quvchilarda adabiyot darslarida badiiy asar obrazlarini tahlili bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘quvchi, badiiy asar, hayot, samimiyat, mohiyat, bumerang texnologiyasi, ma’naviyat, qadriyat, usul, mustaqil fikrlash, tafakkur, nutq.

**KIRISH**

Ma'lumki, ona tili va adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda ona tili va adabiyot darslarining o'rni muhimdir. Yaxshi badiiy asarlarning barchasida u yoki bu ma'naviy qadriyatlar, iymon, vijdon, insof, diyonat, sadoqat, rostgo'ylik, samimiyat kabi qator fazilatlar ulug'lanadi, tarannum etiladi.

Chunki badiiy asar o'z tabiati va mohiyatiga ko'ra ma'naviyatini targ'ib qilishga asoslangan. O'quvchi o'qilgan asarni sir-asrorini tuysagina, qalbida kitobga muhabbat hissi shakllanadi, chinakam badiiyat namunasini ajrata olish malakasini egallasa haqiqiy kitoxonga aylanadi. Biror asarni o'qish, uni tahlil qilish jarayonida olingan bilim o'quvchini boshqa asarlarni o'qishga, ulardan zavqlanishga undaydi. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili uchun "Swot" universal tahlil, "Venn diagrammasi", "Eng muhimi", "Rolli o'yin?", "Tushunchalar tahlili" "Idrok xaritasi" usullaridan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**MUXOKAMA VA NATIJALAR**

Badiiy asar tahlilini xulosalash, mustahkamlash jarayonida fikr almashishda "Eng muhimi" usuli qo'l keladi. Bunda o'quvchilar asardagi o'zlari uchun eng muhim deb bilgan jihatlarni aytadilar va nima uchun muhim deb topganlarini sharhlaydilar. O'qituvchi tahlil yakunida, albatta, fikrlarni xulosalashi, guruhlarining ishtirokini izohlashi hamda noto'g'ri hukmlardan kitobxonni ogohlantirishi kerak.

Bumerang texnologiyasi ham o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay

olishga qaratilgan. Dars jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash. Dars jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonida o'z ballarini egallashga imkoniyat yaratadi.

Bahs-munozara darslari yechib ulgurmagani fikr, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi. Bahs-munozara o'quvchilardan hushyo'rlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yo'ki noto'g'riligi haqida va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi. O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi.

“Rolli o'yin” metodi. Badiiy asar o'tilganda asarni rollarga bo'lib o'qish yoki sahnalashtirib tahlil qilish usuli ham o'ziga xos samara beradi. O'quvchi xotirasida umrbod muhrlanishiga sabab bo'ladi. “T-chizma” metodi ham adabiyot darslarida asar qahramonlarining ijobiy va salbiy xarakterlarini aniqlashda juda samarali natijaga erishtiradi. “O'tkan kunlar” romani qahramoni Kumush obrazi haqida “T-chizma” metodini quyidagicha qo'llash mumkin.

Badiiy asar tahlilida, “Venn diagrammasi” ham juda yaxshi samara beradi. Bu diagramma orqali o'quvchilar o'rganilgan asar qahramonlarining o'xshash va farqli chiqarishadi. Bunda o'quvchilarning erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllanadi. “Venn diagrammasi” metodi. Bu metoddan ham shoir yoki yozuchi hayoti va jodini, badiiy asar qahramonlarini solishtirish qiyoslash, o'xshash va farqli tomonlarini topishda ham foydalanish mumkin. Masalan: Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” hamda Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romanlarini “Venn diagrammasi” orqali tahlil qilish mumkin. Qahramonlar tahlil qilishda Zebi hamda Kumush timsollarini qiyoslab tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Idrok xaritasi” metodidan ham adabiyot darsida unumli foydalanish mumkin. Bu metodda o'quvchilarga xohlagan, o'zi qiziqqan yoki chiza oladigan rasmlarini kelgusi darsga chizib kelish topshiriladi. Masalan: O'quvchi daraxt rasmini chizib kelishi mumkin. Daraxt shoxlariga asar qahramonlari nomini yoki yozuvchi yoki shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq ma'lumotlarni yozishi orqali o'quvchini o'tilgan mavzu yuzasidan qay darajada bilim egallaganini tekshirish mumkin. Yuqori sinflar uchun “Cho'lpon hatoti va ijodi” mavzusi asosida xarita tuzib kelish topshirish mumkin.

“Qo'sh daraxt” metodi. Bu metodda darslikdagi har qanday shoir va yozuvchi hayoti va ijodi, asarlari, she'rlari asosida tashkil etiladi. Mayda oq qog'oz parchalariga yozilgan so'zlardan mavzuga oid so'zlar ajratib olinadi, qo'llanilganlarini birinchi daraxtga, hayoti va ijodiga oid so'zlar, ikkinchi daraxtga asarlariga oid so'zlarni ilib qo'yishlari kerak. Bunda sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga ajratilib, musobaqa

uyushtiradilar. Har bir o'quvchidan o'zi ilib qo'ygan qog'oz parchasidagi so'zlarni yodda saqlab qolish talab etiladi. To'g'ri va tez bajargan guruh rag'batlantiriladi.

### **XULOSA**

Badiiy asar tahlili o'quvchini ma'naviyatli, chuqur hissiyotli, yetuk fazilatli bo'lishiga undaydi. Shuningdek, to'g'ri tashkil etilgan badiiy tahlil o'quvchilarning kitobxon bo'lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A. Fitrat. Adabiyot qoidalari. T: O'qituvchi. 1995-yil.
2. Til va Adabiyot ta'limi jurnali . 2018 –yil. 3-son .
3. Q.Yo'ldosh, M. Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari.T: Kamalak: 2016 yil..
4. To'qliyev B., Niyozmetova R. va b. Til adabiyot ta'limining zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2011.
5. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
6. Abdullayeva M. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish" fanidan ma'ruzalar matni. – T., 2017.